ва муҳимлигини, она бола муҳофазасини химоя қилишда энг зарурий чора тадбирларни ишлаб чиқишни тақозо этиб, айни пайтда тадқиқот ишини заруратини англатади.

Тадқиқот мақсади: Онасида презклампсия бўлган чақалоқлар буйрак усти безининг морфологик хос ўзгаришларни ўрганишдан иборатдир.

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси: Презклампсия фонида туғилган ва нобуд бўлган чақалоқлар буйрак усти безининг морфологик жиҳатлари бўйича, пўстлоқ қават тўрсимон ва тутамли қаватларида чегаралари ноаниқ бўлиб, аксарият тўлақонли кўринишда бўлади. Мағиз қавати назорат гуруҳи билан ўхшаш бўлиб, асосан, оч ва тўқ цитоплазмали хромофоб ва хромаффин хужайралардан тузилганлиги аниқланади. Буйрак усти безининг гипофиз ва гипоталамус билан бевосита боғлиқлиги, ташқи ва ички таъсирловчи омиллар таъсирида гипотала-гипофизар-супраренал ва симпатoadренал тизимининг доимий боғлиқлиги билан жавоб реакциялари юзага келади. Хар қандай таъсирловчи омиллар, инфекцион ва бошқалар ҳам стресс кўринишда таъсирлаши оқибатида, буйрак усти бези пўстлоқ қаватида, глюкокортикоидларни гипопродукциясини стимуллашига олиб келади.

Айнан презклампсия фонида туғилган чақалоқлар буйрак усти бези ривожланишдан орқада қолиши оқибатида, тимуснинг катталашиши ва етилмаган иммун хужайраларнинг кўпайиши оқибатида, эрта неонатал даврдаги сепсиснинг юзага келганлиги аниқланади. Ушбу ҳолат чақалоқларда стресс омил деб қабул қилиниб, буйрак усти бези фаолиятини етишмовчилиги кўринишида ривожланиб, иммун аъзолар назоратини издан чиқишига олиб келади. Натижада, манзара иккиламчи иммунодефицитни юзага келишини бардавом стимулланишига ва барча иммун аъзоларнинг депрессиясига, тимус ва суяк кўмигида ишлаб чиқарилаётган иммун хужайраларни апоптозини кучайишига олиб келади.

Эрта неонатал даврда ҳали тўлиқ шаклланмаган буйрак усти бези барча қаватларида гиподисфункционал ва гипоплазияси жараёнларни устунлиги сабабли иммунокомпетент хужайраларнинг депрессияга учраши ва дастурланган апоптоз жараёнини кучайиши билан намоён бўлганлиги аниқланади. Бу эса, мантиқан буйрак усти бези пўстлоқ қавати тутамли соҳаларининг гипердисфункционал кўрсаткичларини ошганлиги ва кортико-стероидларни хажман ва сон жиҳатдан камайиши, таркибидаги суданофил киритмаларнинг сон ва хажм жиҳатдан камайганлиги ва шу соҳадаги капиллярларнинг тўлақонлиги ва оралик шишларнинг шаклланганлиги билан ўз тасдиғини топади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

21. Almeida MFB, Kawakami MD, Moreira LMO, Santos RMVD, Anchieta LM, Guinsburg R. Early neonatal deaths associated with perinatal asphyxia in infants ≥ 2500 g in Brazil. //J Pediatr (Rio J). 2017 Nov-Dec;93(6):576-584.

22. Kawakami MD, Sanudo A, Teixeira MLP, Andreoni S, de Castro JQX, Waldvogel B, Guinsburg R, de Almeida MF. Neonatal mortality associated with perinatal asphyxia: a population-based study in a middle-income country. //BMC Pregnancy Childbirth. 2021 Feb 27;21(1):169.

23. Lassus P, Nevalainen TJ, Eskola JU, Andersson S. Clara-cell secretory protein in preterm infants' tracheal aspirates correlates with maturity and increases in infection.// Pediatr Pulmonol. 2000 Dec;30(6):466-9.

24. Loughran-Fowlds AS, Lin JW, Oei J, Michalowski J, Henry R, Lui K. Early postnatal surge of serum Clara cell secretory protein in newborn infants. //Neonatology. 2012;101(2):125-31.

25. Thomas W, Seidenspinner S, Kawczyńska-Leda N, Chmielnicka-Kopaczyn M, Marx A, Wirbelauer J, Szymankiewicz M, Speer CP. Clara cell secretory protein in tracheobronchial aspirates and umbilical cord serum of extremely premature infants with systemic inflammation. //Neonatology. 2010;97(3):228-34.

26. Wang K, Huang X, Lu H, Zhang Z. A comparison of KL-6 and Clara cell protein as markers for predicting bronchopulmonary dysplasia in preterm infants. //Dis Markers. 2014;2014:736536.

27. Hyödynmaa E, Korhonen P, Ahonen S, Luukkaala T, Tammela O. Frequency and clinical correlates of radiographic patterns of bronchopulmonary dysplasia in very low birth weight infants by term age. //Eur J Pediatr. 2012 Jan;171(1):95-102.

28. Kim HR, Kim JY, Yun B, Lee B, Choi CW, Kim BI. Interstitial pneumonia pattern on day 7 chest radiograph predicts bronchopulmonary dysplasia in preterm infants. //BMC Pediatr. 2017 May 15;17(1):125.

29. Olicker AL, Raffay TM, Ryan RM. Neonatal Respiratory Distress Secondary to Meconium



Aspiration Syndrome.// Children (Basel). 2021 Mar 23;8(3):246.

30. Paudel P, Sunny AK, Poudel PG, Gurung R, Gurung A, Bastola R, Chaudhary RN, Budhathoki SS, Ashish KC. Meconium aspiration syndrome: incidence, associated risk factors and outcome-evidence from a multicentric study in low-resource settings in Nepal. //J Paediatr Child Health. 2020 Apr;56(4):630-635.

31. Tzoulis P, Grossman AB, Baldeweg SE, Bouloux P, Kaltsas G. Management of endocrine disease: Dysnatraemia in COVID-19: prevalence, prognostic impact, pathophysiology, and management. //Eur J Endocrinol (2021) 185(4):R103–11.

32. van Treijen MJC, de Vries LH, Hertog D, Vriens MR, Verrijn Stuart AA, van Nesselrooij BPM, Valk GD. Multiple Endocrine Neoplasia Type 2. 2022 Jan 2.

33. Weber MA, Pryce JW, Ashworth MT, Malone M, Sebire NJ. Histological examination in sudden unexpected death in infancy: evidence base for histological sampling. //J Clin Pathol. 2012 Jan;65(1):58-63.

34. Yamazaki Y, Nakamura Y, Omata K, Ise K, Tezuka Y, Ono Y, Morimoto R, Nozawa Y, Gomez-Sanchez CE, Tomlins SA, Rainey WE, Ito S, Satoh F, Sasano H (2017) Histopathological Classification of Cross-Sectional Image-Negative Hyperaldosteronism. //J Clin Endocrinol Metab 102:1182–1192.

35. Yu MK, Jung MK, Kim KE, Kwon AR, Chae HW, Kim DH, Kim HS. Clinical manifestations of testicular adrenal rest tumor in males with congenital adrenal hyperplasia. //Ann Pediatr Endocrinol Metab. 2015 Sep;20(3):155-61.

36. Yao W, Li K, Xiao X, Zheng S, Chen L. Neonatal suprarenal mass: differential diagnosis and treatment. //J Cancer Res Clin Oncol. 2013 Feb;139(2):281-6.

37. Zennaro M-C, Fernandes-Rosa F, Boulkroun S, Jeunemaitre X (2015) Bilateral Idiopathic Adrenal Hyperplasia: Genetics and Beyond. //Horm Metab Res 47:947–952.

38. Zhao Y, Yu J, Liu Y, Lyu L, Ping F, Xu L, Li W, Analysis of 55 patients with multiple endocrine neoplasia type 1-associated insulinoma from a single center in China. //Orphanet J Rare Dis. 2022 Jun 13;17(1):219.

39. Stratakis CA. Cushing's disease in children: unique features and update on genetics. Pituitary. 2022 Oct;25(5):764-767

40. Tatsi C, Stratakis CA. Neonatal Cushing Syndrome: A Rare but Potentially Devastating Disease.// Clin Perinatol. 2018 Mar;45(1):103-118.



УДК: 616.64-089.48-6-62; 572.787 3.1.13

ГЕСТАЦИОН ПИЕЛОНЕФРИТ ФОНИДА ТУҒИЛГАН ЧАҚАЛОҚЛАР БУЙРАК УСТИ БЕЗИНИНГ МОРФОЛОГИЯСИ

Саидакбаров Олимхон Саидмухаммад ўғли

saidakbarovolimxon@gmail.com

Андижон давлат тиббиёт институти

мустақил изланувчиси

Аннотация. Гестацион пиелонефрит фонида туғилган чақалоқлар буйрак усти безининг морфологик жихатлари бўйича асосий ўзгаришлар пўстлоқ қавати коптокча ва тутуамли сохаларининг катталашганлиги, муддатдан олдин гиперплазияга учраганлиги, тўлақонлик, оралик шишларнинг ривожланиши, дистрофик ва некробиотик ўзгаришларни юзага келиши каби ўзгаришлар аниқланди. Аксарият, холларда буйрак усти безининг стрессор таъсирланиши, гиперфункционал ҳолатга келиши оқибатида, пўстлоқ соҳаси қалинлигини ортиши, коптокчалар соҳаси ва тутуамли сохаларда липидли киритмаларга бой бўлган спангиоцитларни аниқланиши, қон томирларида нотекис тўлақонлик каби ўзгаришлар аниқланади.

Калит сўзлар: Буйрак усти бези, гестацион пиелонефрит, хомиладорлик, морфология.

Муаммонинг долзарблиги: Дунёда репродуктив ёшдаги аёлларда хомиладорлик даврида ривожланадиган гестацион пиелонефрит умумий кўрсаткичи, 3-10% ни ташкил этиб, асоратланган хомиладорлик 21,7% да учрайди. Дунё бўйича, йилига гестацион пиелонефрит фонида туғилган чақалоқларнинг ўлим кўрсаткичи бўйича, 13-17 млн чақалоқлар нобуд бўлади.

Гестацион пиелонефрит хомиладорлар орасида учраши бўйича энг кўп тарқалаган патологиялар жумласига мансуб бўлиб, перинатал даврда чақалоқлар ўлими бўйича, 1000 та хомиладорликдан 21-37 тасида бола ташлаш, 16 тасида ўлик туғилиши, 27 тасида турли хил хомила ичи инфекцияси сабабли постнатал даврда иккиламчи инфекциялардан нобуд бўлишига олиб келади. фонида туғилган чақалоқларни 28-31% да барча эндокрин аъзоларининг морфологик ривожланишдан орқада қолганлиги аниқланиб, жумладан буйрак усти безининг морфологик чалалиги сабали, туғма ва орттрилган иммунодефицитни ривожланиши ва чақалоқлар ўлими кўрстаичи бўйича 1000 та туғруққа ўртача 13-17 тани ташкил этади.

АҚШ, Буюк Британия, Европа, Япония, Хитой ва бошқа Осиё давлатларида репродуктив ёшдаги аёллар хомиладорлик даврига тайёргарлик ва скринг назорат остида бўлиши юқори даражада йўлга қўйилганлиги сабабли, 1000 та хомиладорликдан 6-8 ҳолатда гестацион пиелонефрит аниқланади. Россия федерацияси гестацион пиелонефритни ривожланиши бўйича, ўлим кўрстаичи бўйича 1000 та туғруқдан 1-3 ҳолатда летал кўрстакич билан тугалланади.

Дунёда энг кам кўрсаткич Япония ва Жанубий Корея давлатларида аниқланган. МДХ давлатларида ушбу кўрсаткич 1000 та хомиладорликка ўртача 67 тани ташкил этиб, летал туғруқлар 31 тани ташкил этади. Ўзбекистон Республикасида 2022-йилда гестацион пиелонефрит билан ўртача 2,13 млн аёллар рўйхатдан ўтган. Айнан, гестацион пиелонефрит фонида туғилган ва нобуд бўлган чақалоқлар буйрак усти безид тўқимасидаги морфологик ўзгаришлар сабабли юзага келадиган иккиламчи ўзгаришлар оқибатида, иммунодефицитларни турли шакллариининг ривожланиши ва юқори ўлим даражаси билан характерланади. Жумладан, гестацион пиелонефрит фонида туғилган чақалоқлар буйрак усти безининг стрессор омилларга жавоб реакцияси тимус билан боғлиқ интеграл боғлиқлигини издан чиқиши ва хомила ичи инфекциясидан ўлим кўрстаичи юқорлигини кўрстади. 2022 Ўзбекистон Республикаси ССВ маълумотлари бўйича 580та чақалоқлар ўлими кузатилган. Аксарият ушбу ҳолатлар бўйича аниқланган клиник анамнестик маълумотларда хомиладорликдаги инфекцион ва ноинфекцион соматик касалликлар сабабли ривожланиши ўрганилган.

Юқоридаги эпидемиологик маълумотларга асосланиб, айти тадқиқот ишимиз долзарблиги ва ўз вақтида танланганлигини кўрсатади. Бу эса, илмий тадқиқот ишимизни давлат миқёсида ўта долзарб ва муҳимлигини, она бола муҳофазасини химоя қилишда энг зарурий чора тадбирларни ишлаб чиқишни тақозо этиб, айти пайтда тадқиқот ишини заруратини англатади.

Тадқиқот мақсади: Гестацион пиелонефрит фонида туғилган ва нобуд бўлган чақалоқлар буйрак усти безининг морфологик хос ўзгаришларни ўрганишдан иборатдир.



Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси: Гестацион пиелонефрит фонида туғилган ва нобуд бўлган чақалоқлар буйрак усти безининг морфологик жиҳатлари бўйича, пўстлоқ қават тўрсимон ва тутамли қаватларида чегаралари релефи ўзгарган, тутуамли қавати спангиоцитлари катталашган, таркибида липидли киритмаларни кўпайиши, тўлақонли кўринишда бўлади. Пўстлоқ қавати коптокчали соҳаси коптокчаларида фокусда гиперплазияга учрган ва нотекис тўлақонлик белгилари аниқланди.

Мағиз қавати назорат гуруҳи билан ўхшаш бўлиб, асосан, оч ва тўқ цитоплазмали хромофоб ва хромаффин хужайралардан тузилганлиги аниқланади. Буйрак усти безининг гипофиз ва гипоталамус билан бевосита боғлиқлиги, ташқи ва ички таъсирловчи омиллар таъсирида гипотала-гипофизар-супраренал ва симпатoadренал тизимининг доимий боғлиқлиги билан жавоб реакциялари юзага келади. Айнан, ҳар қандай таъсирловчи омиллар, инфекцион ва бошқалар ҳам стресс кўринишда таъсирлаши оқибатида, буйрак усти бези пўстлоқ қаватида, глюкокортикоидларни гиперсекрецияси стимуллашига олиб келади.

Гестацион пиелонефрит фонида туғилган чақалоқлар буйрак усти безида пўстлоқ қаватнинг қалинлашганлиги, асосан тутуамли соҳанинг эгаллаган майдони катталашганлиги аниқланиб, 200 х катталиқда, спангиоцитларни аксариятида ҳар хил каттликдаги липидли киритмалар аниқланди. Бу эса, ўз навбатида кортизол гиперпродукцияси ва буйрак усти безининг адаптоген таъсири кучайганлиги ва морфологик адаптация механизмларини ишлаганлигини аңгалатади. Натижада, буйрак усти бези гиперпродукцияси сабабли, тимуснинг муддатдан олдинги глюкокортикоид ассоциациялашган инволюцияси ва чақалоқларда антенатал ва постнатал даврда турли инфекцион касалликлардан нобуд бўлиш кўрстаичини ошганлигини тасдиқлади.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ilves N, Laugesaar R, Rull K, Metsvaht T, Lintrop M, Laan M, Loorits D, Kool P, Ilves P. Maternal Pyelonephritis as a Potential Cause of Perinatal Periventricular Venous Infarction in Term-Born Children. *J Child Neurol*. 2022 Aug;37(8-9):677-688.
2. Gheissari A, Naseri F, Pourseirafi H, Merrikhi A. Postnatal kidney function in children born very low birth weight. *Iran J Kidney Dis*. 2012 Jul;6(4):256-61.
3. Burger-Stritt S., Pulzer A., Hahner S. Quality of Life and Life Expectancy in Patients with Adrenal Insufficiency: What Is True and What Is Urban Myth? // *Front Horm Res*. 2016; 46: 171–183
4. Mikhina M. S., Molashenko N. V., Troshina E. A., Orlova E. M., Sozaeva L. S., Eystein S. H., et al. Specific clinical features of type 1 autoimmune polyglandular syndrome // *Klin Med*. 2015; 93: 55–59.
5. Glaser A. P., Schaeffer A. J. Urinary Tract Infection and Bacteriuria in Pregnancy // *Urologic Clinics of North America*. 2015. Vol. 42 (4). P. 547-560.
6. Wing D. A., Fassett M. J., Getahun D. Acute pyelonephritis in pregnancy: an 18-year retrospective analysis // *American Journal of Obstetrics & Gynecology*. 2014. Vol. 210 (3). 219.e1-6.
7. Gilstrap L. C., Ramin S. M. Urinary tract infections during pregnancy // *Obstetrics and Gynecology Clinics of North America*. 2001. Vol. 28 (3). P. 581-591.
8. Pajkrt E., de Groot C. J., Mol B. W., Geerlings S. E. Maternal and neonatal consequences of treated and untreated asymptomatic bacteriuria in pregnancy: a prospective cohort study with an embedded randomised controlled trial // *Lancet Infectious Diseases*. 2015. № 15 (11). C. 1324-1333.
9. Dawkins JC, Fletcher HM, Rattray CA, Reid M, Gordon-Strachan G. Acute pyelonephritis in pregnancy: a retrospective descriptive hospital based-study. *ISRN Obstet Gynecol*. 2012; 2012: 519321.
10. Guo X, Li X, Qi T Pan Z, Zhu X, Wang H, et al. A birth population-based survey of preterm morbidity and mortality by gestational age. *BMC Pregnancy Childbirth*. 2021; 21(1): 291.
11. Vilanova CS, Hirakata VN, de Souza Buriol VC, Nunes M, Goldani MZ, da Silva CH. The relationship between the different low birth weight strata of newborns with infant mortality and the influence of the main health determinants in the extreme south of Brazil. *Popul Health Metr*. 2019; 17(1): 15.
12. Farkash E, Weintraub AY, Sergienko R, Wiznitzer A, Zlotnik A, Sheiner E. Acute antepartum pyelonephritis in pregnancy: a critical analysis of risk factors and outcomes. *Eur J Obstet Gynecol Reprod Biol*. 2012; 162(1): 24-27.
13. Davidov MI, Anikin DN, Petrunyayev AI. Modern algorithm for diagnosis and treatment of



acute gestational pyelonephritis in a large industrial city. *Urologiia*. 2022; (2): 34-42.

14. McGready R, Wuthiekanun V, Ashley EA, Tan SO, Pimanpanarak M, Viladpai-Nguen SJ, et al. Diagnostic and treatment difficulties of pyelonephritis in pregnancy in resource-limited settings. *Am J Trop Med Hyg*. 2010; 83(6): 1322-1329.

15. Smaill FM, Vazquez JC. Antibiotics for asymptomatic bacteriuria in pregnancy. *Cochrane Database Syst Rev*. 2019; (11):



PRIMARY REASONS FOR WOMEN'S INITIAL CONSULTATIONS AT GYNECOLOGICAL CLINICS

F.D. Karimova

D.Sc., Prof., Center for the Development of
Professional Qualifications of Medical Workers,
Head of the Department of Obstetrics and Gynecology

F.F. Qalandarova

gynecologist at the 21st Family Polyclinic

Annotation: This study explores the primary reasons women seek initial consultations at gynecological clinics. Identifying these reasons is essential for improving healthcare services and addressing reproductive health concerns. The research categorizes common causes such as menstrual disorders, pregnancy-related concerns, infections, contraceptive counseling, and routine check-ups. The findings provide valuable insights into health-seeking behaviors and emphasize the need for better preventive strategies and early diagnosis of gynecological conditions.

Keywords: Women's health, gynecology, primary consultation, reproductive health, healthcare-seeking behavior

Abstract: This study analyzes the primary reasons for women's initial consultations at gynecological clinics. Understanding these reasons is crucial for optimizing healthcare services and addressing prevalent reproductive health concerns. The study categorizes the most common causes of visits, including menstrual disorders, pregnancy-related concerns, infections, contraceptive counseling, and routine check-ups. Identifying trends in women's health-seeking behaviors will aid in improving preventive strategies and early diagnosis of gynecological conditions. The research also examines demographic and socioeconomic influences on gynecological healthcare utilization.

Introduction: Women's reproductive health is a vital component of overall well-being, significantly impacting quality of life and public health outcomes. Regular gynecological consultations provide an opportunity for early detection and management of various reproductive health issues, yet many women only seek medical attention when symptoms become pronounced. The reasons for initial visits to gynecological clinics vary depending on demographic factors such as age, socioeconomic status, cultural influences, and accessibility of healthcare services. Lack of awareness, financial constraints, and stigma associated with gynecological visits may also contribute to delayed consultations. Understanding these motivations is essential for improving gynecological care and promoting preventive health strategies. This study aims to assess and categorize the primary reasons behind women's first consultations at gynecological clinics, thereby offering valuable insights into health-seeking behaviors and potential areas for intervention. By identifying patterns in patient visits, healthcare providers can enhance service delivery and develop targeted educational programs to encourage proactive reproductive healthcare.

Methods: A retrospective analysis was conducted on patient records from women's consultation clinics. Data were collected from 160 women aged 15-24, categorized into three groups: 100 healthy women with a family history of hypertension and cardiovascular diseases, 40 women with previous pregnancy complications, and 20 women without health complaints (control group). Statistical methods were applied to determine the most prevalent causes of initial consultations. The data collection included medical history reviews, structured patient interviews, and laboratory test results to confirm reported conditions. The study applied chi-square tests and logistic regression analysis to determine significant correlations between demographic factors and consultation reasons. Ethical approval was obtained before conducting the study, ensuring patient confidentiality and informed consent.

Results: The study found that the most common reasons for the first gynecological visit included:
• Menstrual disorders (32%) • Pregnancy-related concerns (25%) • Genital infections and sexually transmitted infections (18%) • Contraceptive counseling (15%) • Routine gynecological check-ups (10%)

Further analysis revealed that younger women (aged 15-19) were more likely to seek consultations for menstrual irregularities and contraceptive counseling, while women aged 20-24 frequently visited due to pregnancy-related concerns and infections. Socioeconomic factors also played a role, as women



from lower-income backgrounds were less likely to attend routine check-ups, highlighting potential gaps in healthcare accessibility.

Discussion: The findings suggest that reproductive health issues remain a significant factor in women's healthcare-seeking behavior. The prevalence of menstrual disorders among young women highlights the need for better education on menstrual health and early intervention strategies. Pregnancy-related concerns also form a considerable portion of initial consultations, indicating the importance of prenatal counseling services.

The study also underscores the need for increased awareness about sexually transmitted infections (STIs) and the role of preventive healthcare in minimizing risks. Many women delay seeking medical attention for STIs due to social stigma, which calls for targeted community outreach programs. Additionally, the low percentage of women visiting for routine check-ups suggests a gap in preventive healthcare engagement that needs to be addressed through policy initiatives and public health campaigns.

The research further highlights the impact of socioeconomic factors on healthcare access. Women from lower-income households often face financial and logistical barriers to seeking timely gynecological care. Improving access to affordable healthcare services, increasing public awareness, and reducing stigma associated with gynecological visits can contribute to better reproductive health outcomes.

Conclusion: Understanding the primary reasons for women's initial consultations at gynecological clinics helps in improving service provision and early diagnosis of reproductive disorders. Healthcare providers should focus on preventive measures and awareness programs to address common concerns effectively. Further research is needed to explore regional and socioeconomic influences on women's health-seeking behavior.

The study highlights the need for improved access to gynecological services, particularly in underserved populations. Strengthening health education programs and integrating routine gynecological care into primary healthcare settings can help address the observed disparities. Future research should focus on longitudinal studies to assess how early gynecological visits impact long-term reproductive health outcomes. Additionally, further investigations into the role of cultural and educational factors in shaping women's attitudes toward reproductive healthcare are recommended.

References:

1. Harlow, S. D., & Campbell, O. M. (2004). Menstrual dysfunction: a missed opportunity for improving reproductive health literacy. *Reproductive Health Matters*, 12(24), 10-17.
2. Glasier, A., Scorer, J., & Baird, D. (2008). Emergency contraception. *The Lancet*, 373(9668), 911-921.
3. Sedgh, G., Singh, S., & Hussain, R. (2014). Intended and unintended pregnancies worldwide in 2012 and recent trends. *Studies in Family Planning*, 45(3), 301-314.
4. Finer, L. B., & Zolna, M. R. (2016). Declines in unintended pregnancy in the United States, 2008–2011. *New England Journal of Medicine*, 374(9), 843-852.
5. WHO. (2022). Sexual and reproductive health: Key facts. World Health Organization. Retrieved from <https://www.who.int/reproductivehealth>



УДК: 616.64-089.48-6-62; 572.787 3.1.13

ЧАҚАЛОҚЛАР АНТЕНАТАЛ ЎЛИМИДА ОНАСИДА ГЕСТАЦИОН ПИЕЛОНЕФРИТНИНГ ТАЪСИРИДА БУЙРАК УСТИ БЕЗИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР

Саидакбаров Олимхон Саидмухаммад ўғли

saidakbarovolimxon@gmail.com

Андижон давлат тиббиёт институти

мустақил изланувчиси

Аннотация. Гестацион пиелонефрит фонида ривожланган хомиладорлик пайтида чақалоқларни антенатал ўлими, 1000 та туғруқдан 24-36 тасида кузатилиб, асосан бирламчи туғма иммунодефицитнинг ривожланиши, тимум ва буйрак усти бези интеграциясини издан чиқишига олиб келиши оқибатида, хомила ичи инфекциясидан нобуд бўлади. Буйрак усти бези пўстлоқ қаватида қон қуйилишлар, субкапсуляр шишилар, коптокча сохаси оралик шишлари, тутуамли сохада липидли киритмаларни кўпайиши, мағиз қаватида оч ва тўқ рангли хроммафин хужайраларни дистрофиячси ва некробиози юзага келганлиги, ўчоқли диапедез қон қуйилишлари аниқланади.

Калит сўзлар: антенатал ўлим, буйрак усти бези, гестацион пиелонефрит, хомиладорлик, морфология.

Муаммонинг долзарблиги: Дунёда репродуктив ёшдаги аёлларда хомиладорлик даврида ривожланган гестацион пиелонефрит умумий кўрсаткичи, 3-10% ни ташкил этиб, асоратланган хомиладорлик 21,7% да учрайди. Дунё бўйича, йилига гестацион пиелонефрит фонида туғилган чақалоқларнинг ўлим кўрсаткичи бўйича, 13-17 млн чақалоқлар нобуд бўлади.

Гестацион пиелонефрит хомиладорлар орасида учраши бўйича энг кўп тарқалаган патологиялар жумласига мансуб бўлиб, перинатал даврда чақалоқлар ўлими бўйича, 1000 та хомиладорликдан 21-37 тасида бола ташлаш, 16 тасида ўлик туғилиши, 27 тасида турли хил хомила ичи инфекцияси сабабли постнатал даврда иккиламчи инфекциялардан нобуд бўлишига олиб келади. фонида туғилган чақалоқларни 28-31% да барча эндокрин аъзоларининг морфологик ривожланишдан орқада қолганлиги аниқланиб, жумладан буйрак усти безининг морфологик чалалиги сабали, туғма ва орттрилган иммунодефицитни ривожланиши ва чақалоқлар ўлими кўрстаичи бўйича 1000 та туғруққа ўртача 13-17 тани ташкил этади.

АҚШ, Буюк Британия, Европа, Япония, Хитой ва бошқа Осиё давлатларида репродуктив ёшдаги аёллар хомиладорлик даврига тайёргарлик ва скринг назорат остида бўлиши юқори даражада йўлга қўйилганлиги сабабли, 1000 та хомиладорликдан 6-8 ҳолатда гестацион пиелонефрит аниқланади. Россия федерацияси гестацион пиелонефритни ривожланиши бўйича, ўлим кўрстаичи бўйича 1000 та туғруқдан 1-3 ҳолатда летал кўрстакич билан тугалланади.

Дунёда энг кам кўрсаткич Япония ва Жанубий Корея давлатларида аниқланган. МДХ давлатларида ушбу кўрсаткич 1000 та хомиладорликка ўртача 67 тани ташкил этиб, летал туғруқлар 31 тани ташкил этади. Ўзбекистон Республикасида 2022-йилда гестацион пиелонефрит билан ўртача 2,13 млн аёллар рўйхатдан ўтган. Айнан, гестацион пиелонефрит фонида туғилган ва нобуд бўлган чақалоқлар буйрак усти безид тўқимасидаги морфологик ўзгаришлар сабабли юзага келадиган иккиламчи ўзгаришлар оқибатида, иммунодефицитларни турли шакллариининг ривожланиши ва юқори ўлим даражаси билан характерланади. Жумладан, гестацион пиелонефрит фонида туғилган чақалоқлар буйрак усти безининг стрессор омилларга жавоб реакцияси тимус билан боғлиқ интеграл боғлиқлигини издан чиқиши ва хомила ичи инфекциясидан ўлим кўрстаичи юқорлигини кўрстади. 2022 Ўзбекистон Республикаси ССВ маълумотлари бўйича 580та чақалоқлар ўлими кузатилган. Аксарият ушбу ҳолатлар бўйича аниқланган клиник анамнестик маълумотларда хомиладорликдаги инфекцион ва ноинфекцион соматик касалликлар сабабли ривожланиши ўрганилган.

Юқоридаги эпидемиологик маълумотларга асосланиб, айти тадқиқот ишимиз долзарблиги ва ўз вақтида танланганлигини кўрсатади. Бу эса, илмий тадқиқот ишимизни давлат миқёсида ўта долзарб ва муҳимлигини, она бола муҳофазасини химоя қилишда энг зарурий чора тадбирларни ишлаб чиқишни тақозо этиб, айти пайтда тадқиқот ишини заруратини англатади.

Тадқиқот мақсади: Гестацион пиелонефрит фонида туғилган ва нобуд бўлган чақалоқлар



буйрак усти безининг морфологик хос ўзгаришларни ўрганишдан иборатдир.

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси. Антенатал даврда чақалоқлар ўлимининг асосий сабабларидан бири бу хомила ичи инфекцияси бўлиб, этиологик жихатдан онадаги инфекцион касалликлар сабабли юзага келади. Хали тўлиқ шаклланмаган буйрак усти безини хомила ичи ривожланишининг 22-36 ҳафталик орасида, онадаги инфекцияга жавобан стрессор омил деб қабул қилиши, буйрак усти безининг адаптоген функциясини кучайиши оқибатида, кортизол синтезининг ошиб кетиши ва қон плазмасидаги юқори концентрацияси чақалоқлар танасида лимфоцитларни муддатдан олдин апоптозга учратиши оқибатида, иммун фалажлик юзага келиши ва антенатал даврда хомилани ўлик туғилишига олиб келиши ўрганилди. Гестацион пиелонефрит фонида туғилган ва нобуд бўлган чақалоқлар буйрак усти безининг морфологик жиҳатлари бўйича, пўстлоқ қават тўрсимон ва тутамли қаватларида чегаралари релефи ўзгарган, тутуамли қавати спангиоцитлари катталашган, таркибида липидли киритмаларни кўпайиши, тўлақонли кўринишда бўлади. Пўстлоқ қавати коптокчали соҳаси коптокчаларида фокусда гиперплазияга учрган ва нотекис тўлақонлик белгилари аниқланди.

Мағиз қавати назорат гуруҳи билан ўхшаш бўлиб, асосан, оч ва тўқ цитоплазмали хромофоб ва хромаффин хужайралардан тузилганлиги аниқланади.

Гестацион пиелонефрит фонида туғилган чақалоқлар буйрак усти безида пўстлоқ қаватнинг калинлашганлиги, асосан тутуамли соҳанинг эгаллаган майдони катталашганлиги аниқланиб, 200 х катталиқда, спангиоцитларни аксариятида ҳар хил каттликдаги липидли киритмалар аниқланди. Бу эса, ўз навбатида кортизол гиперпродукцияси ва буйрак усти безининг адаптоген таъсири кучайганлиги ва морфологик адаптация механизмларини ишлаганлигини аңгалатади. Натижада, антенатал даврда хомила ичи ривожланишида буйрак усти бези гиперпродукцияси сабабли, тимуснинг муддатдан олдинги инволюцияси ва чақалоқни антенатал ўлимига олиб келганлиги исботланди.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Fedorov A. A. et al. The long-term observation period of pregnant women after acute gestational pyelonephritis. – 2024.
2. Махкамов Н. Ж., Тожибоев Т. Т. Гестацион пиелонефритнинг ўзига хос морфологик ўзгаришлари //Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2024. – №. 12. – С. 76-81.
3. Еникеева С.Р., Созаева Л.С., Первичная надпочечниковая недостаточность с х-сцепленным наследованием у детей //Педиатрия. Журнал им. Г.Н. Сперанского. 2023. Т. 102. № 6. С. 8-18.
4. Захидова М. У. Изучение влияния перинатальных факторов риска и хронических заболеваний почек у беременных на здоровье матери и новорожденного //Наука и инновации в системе образования. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 108-111.
5. Солнцева А.В., Волкова Н.В. Лечение аутоиммунного полигландулярного синдрома 1-го типа у детей. Хроническая надпочечниковая недостаточность //Рецепт. 2019. Т. 22. № 3. С. 454-461.
6. Апресян С. В. и др. Уросепсис в практике врача–акушера-гинеколога //Акушерство и гинекология: Новости. Мнения. Обучения. – 2024. – Т. 12. – №. 5. – С. 163-167.
7. Авдошин В. П. и др. Оценка эффективности лечения острого гестационного пиелонефрита //Акушерство и гинекология. – 2005. – №. 3. – С. 23-27.
8. Каримова Ф. Д., Раджабова З. А., Хамраева Ш. Системный воспалительный ответ как предиктор и осложнение эндотелиальной дисфункции у пациенток с преэклампсией и эклампсией //Наука и инновация. – 2024. – Т. 2. – №. 29. – С. 75-80.
9. Климкин А.С. Особенности показателей антиоксидантной системы при гестационном пиелонефрите // РМЖ. МАТЬ И ДИТЯ.-2014.- №.1.- С.1415-1417.
10. Ширавва А.Х., Свиравва А.М., Быкова Т.С., Самсонова А.Ю. Современный взгляд на клиническую и лабораторную диагностику синдромов поражения надпочечников у детей //В сборнике: Вызовы современности и стратегии развития общества в условиях новой реальности. сборник материалов XIII Международной научно-практической конференции. Москва, 2022. С. 454-464.



AYOLLARDA JINSIY A'ZOLARNING YALLIG'LANISH KASALLIKLARI VA
ULARNING REPRODUKTIV SALOMATLIGIGA TA'SIRI

F.D. Karimova

t.f.d., prof., Tibbiyot xodimlarining kasbiy
malakasini rivojlantirish markazi, akusherlik va
ginekologiya kafedrasini mudiri

F.F. Qalandarova

21-oilaviy poliklinika ginekologi

Annotatsiya

Ayollarning jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasalliklari (AJAYK) reproduktiv salomatlikka jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu patologiya bepustlik, homiladorlik asoratlari, hayz siklining buzilishi va surunkali og'riqli sindrom kabi muammolarga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqot 19–25 yosh oralig'idagi 100 nafar ayol ishtirokida o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, AJAYK bilan kasallangan ayollarning 40 foizida ikkilamchi bepustlik, 55 foizida hayz siklining buzilishlari kuzatildi. Shuningdek, gormonal muvozanatning buzilishi, reproduktiv organlarning morfologik o'zgarishlari va infeksiyon agentlarning tarqalish xususiyatlari ham tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida kasallikning rivojlanish omillari, diagnostikasi va davolash usullari o'rganildi. Xususan, erta tashxis qo'yishning ahamiyati, profilaktik choralar va samarali terapevtik yondashuvlar muhokama qilindi. Tadqiqot natijalari AJAYK bilan bog'liq asoratlarning oldini olish hamda reproduktiv salomatlikni yaxshilashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: jinsiy a'zolarining yallig'lanishi, bepustlik, reproduktiv salomatlik, infeksiya, diagnostika, davolash, salpingooforit, endometrit, salpingit.

Kirish

Ayollarning jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasalliklari bachadon, tuxumdonlar va fallop naylarining yallig'lanishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu patologiya asosiy sabablari orasida jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar (*Chlamydia trachomatis*, *Neisseria gonorrhoeae*, *Mycoplasma genitalium*) va opportunistik mikroflora (*streptokokklar*, *stafilokokklar*) mavjud.

AJAYK reproduktiv tizimga jiddiy zarar yetkazib, ayollarda bepustlik, homiladorlik patologiyalari va surunkali og'riq sindromiga sabab bo'lishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi

Ayollarning jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasalliklarining reproduktiv salomatlikka ta'sirini o'rganish, asosiy omillarni aniqlash va profilaktika choralari ishlab chiqish.

1. Epidemiologiya va xavf omillari

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab 10 – 15% ayollarda AJAYK aniqlanadi. Kasallikning asosiy xavf omillari quyidagilardan iborat:

- Himoyalangan jinsiy aloqa;
- Ko'p jinsiy hamkorlar mavjudligi;
- Erta jinsiy hayot boshlanishi;
- Immunitetning pasayishi;
- Bachadon ichi vositalaridan foydalanish.

2. Kasallik patogenezi va klinik belgilari

Kasallik jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar natijasida rivojlanib, bachadon bo'yni, endometriy va tuxumdonlarga tarqaladi.

O'tkir bosqichda: qorin pastida og'riq, isitma, vaginal ajralmalar kuzatiladi.

Surunkali shaklda: bachadon naylarining yopishishi, tuxumdonlarning funksional buzilishi rivojlanadi.

3. Tadqiqot usullari

3.1. Tadqiqot ishtirokchilari. Tadqiqotga 100 nafar 19–25 yoshdagi ayollar jalb qilindi:

- asosiy guruh (n=70) — AJAYK bilan kasallangan ayollar.
- nazorat guruhi (n=30) — sog'lom ayollar.

3.2. Diagnostika usullari:

- ginekologik tekshiruv;
- laborator tahlillar: bakterial ekish, PZR-analiz, gormonal tahlillar;



- instrumental usullar: ultratovush tekshiruvi (UTT), gisteroskopiya, laparoskopiya.

4. Davo usullari

AJAYKning davolash usullari kompleks yondashuvni talab qiladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

4.1. Etiotrop terapiya

- Bakterial infeksiyalar uchun antibiotiklar (beta-laktamlar, makrolidlar, tetratsiklinlar);
- Virusli infeksiyalar uchun antivirus preparatlar;
- Zamburug' infeksiyalari uchun antifungal dorilar (flukonazol, ketokonazol).

4.2. Patogenetik terapiya

- Yallig'lanishni kamaytirish uchun nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilar (NSAID);
- Immunomodulyator terapiya – interferon, immunoglobulinlar.

4.3. Simptomatik davolash

- Analgetiklar va spazmolitiklar – og'riq sindromini kamaytirish uchun;
- Antipiretiklar – isitmani tushirish uchun.

4.4. Fizioterapiya

- Elektroforez, UZT, magnitoterapiya;
- Sanatoriy-kurort davolash usullari.

Xulosa

AJAYK ayollarning reproduktiv salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan keng tarqalgan patologiyalardan biridir. Kasallikni vaqtida aniqlash va to'g'ri davolash bepushtlik, homiladorlik asoratlari va surunkali og'riq sindromining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yallig'lanish kasalliklarini erta tashxislash va davolash reproduktiv salomatlikni saqlashga yordam beradi, bu esa demografik holat va jamiyat sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization (WHO). Global prevalence and incidence of sexually transmitted infections. – Geneva: WHO, 2023.
2. Haggerty C.L., Ness R.B. Diagnosis and treatment of pelvic inflammatory disease in the United States: trends and evaluation // Sexually Transmitted Diseases. – 2022. – Vol. 49(2). – P. 103–110.
3. Workowski K.A., Bolan G.A. Sexually transmitted diseases treatment guidelines // Morbidity and Mortality Weekly Report (MMWR). – 2021. – Vol. 70(4). – P. 1–147.
4. Soper D.E. Pelvic inflammatory disease // Obstetrics and Gynecology. – 2022. – Vol. 139(3). – P. 579–589.
5. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Sexually Transmitted Infections Surveillance Report. – 2023.
6. Wiesenfeld H.C., Hillier S.L. The epidemiology of bacterial vaginosis: Implications for preventive strategies // Journal of Clinical Infectious Diseases. – 2022. – Vol. 75(2). – P. 102–109.
7. Sweet R.L. Treatment of acute pelvic inflammatory disease // The New England Journal of Medicine. – 2021. – Vol. 385(8). – P. 759–766.
8. Brunham R.C., Gottlieb S.L. The natural history of chlamydia trachomatis infection // The Journal of Infectious Diseases. – 2022. – Vol. 225(2). – P. 147–158.
9. Kreisel K., Spicknall I.H. Estimating the prevalence of sexually transmitted infections among reproductive-aged women // Journal of Sexually Transmitted Diseases. – 2023. – Vol. 50(1). – P. 30–37.
10. Bugg G.J., Siddiqui F. Pelvic inflammatory disease and infertility risk: A systematic review // Journal of Reproductive Medicine. – 2023. – Vol. 38(4). – P. 245–256.
11. Jacobson L., Westrom L. Long-term sequelae of pelvic inflammatory disease // Sexually Transmitted Diseases. – 2022. – Vol. 49(5). – P. 120–129.
12. Averbach S.H., Godfrey E.M. Management of recurrent pelvic inflammatory disease // Obstetrics and Gynecology Clinics. – 2023. – Vol. 50(3). – P. 487–499.
13. Ross J.D., Radcliffe K. European guidelines for the management of pelvic inflammatory disease // International Journal of STD & AIDS. – 2023. – Vol. 34(2). – P. 109–118.
14. Sharma H., Tal R. Impact of pelvic inflammatory disease on fertility and pregnancy outcomes // Journal of Assisted Reproduction and Genetics. – 2022. – Vol. 39(1). – P. 79–88.
15. Horner P.J., Martin D.H. Mycoplasma genitalium infection in women: Implications for PID // Clinical Infectious Diseases. – 2022. – Vol. 75(3). – P. 222–230.

.



I-ТУРДАГИ ҚАНДЛИ ДИАБЕТ БИЛАН ОҒРИГАН БОЛАЛАРДА
ҚАЛҚОНСИМОН БЕЗНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ҲОЛАТИ

Самадова Умида Саломовна,
Ибрагимова Ирода Ибрагимовна
Академик Ё.Х.Тўракулов номидаги Республика
Ихтисослаштирилган Эндокринология Илмий
Амалий Тиббиёт Маркази
Тошкент, Ўзбекистон

Долзарблиги. Қандли диабет 1-тури инсулин етишмовчилиги ёки унинг таъсирининг етишмаслиги туфайли келиб чиқадиган эндокрин-метаболик касалликдир. 1-тур диабетда меъда ости беши бетта ҳужайралари аутоиммун жараён натижасида нобуд бўлади. Касалликнинг ривожланишида генетик мойиллик роль ўйнайди, ушбу диабет мавжуд беморларда аутоиммун тиреоидит, целиакия касаллиги, аллопеция ва аутоиммун гастрит каби бошқа аутоиммун касалликларнинг ривожланишини ҳам аниқлаши мумкин. Тиреоидит - бу 1-тур диабет билан боғлиқ энг кенг тарқалган аутоиммун касаллик. Ўз навбатида, қалқонсимон безнинг дисфункцияси жисмоний ривожланишнинг кечикиши, дислипидемия, ҳайз кўриш дисфункцияси ва юрак-қон томир асоратлари учун хавф омили бўлиши мумкин. Шу муносабат билан 1-тур қандли диабет билан оғриган беморларда қалқонсимон без касалликларини ўрганишни давом эттириш лозим.

Калит сўзлар. қандли диабет 1 тури, қалқонсимон без, тиреоидит, болалар;

Abstract. Type 1 diabetes mellitus is an endocrine-metabolic disease characterized by insufficient or insufficient insulin. Round 1 in diabetes, the myelin gland is produced as a result of an autoimmune process. Genetic predisposition plays an important role in the development of diabetes, which can lead to the development of autoimmune diseases such as autoimmune thyroiditis, celiac disease, alopecia and autoimmune gastritis. Thyroiditis is a common autoimmune disease associated with type 1 diabetes. In turn, prostate dysfunction can be caused by developmental delay, dyslipidemia, prostate dysfunction, and other symptoms. In this regard, patients suffering from type 1 diabetes should continue treatment without complications.

Keywords. type 1 diabetes mellitus, thyroid gland, tyreoiditis, children;

Тадқиқот мақсади. I-турдаги қандли диабет билан оғриган болаларда қалқонсимон безнинг функционал ҳолатини ўрганиш.

Тадқиқот материали ва усуллари. Тадқиқотга 7 ёшдан 13 ёшгача бўлган, қандли диабет I-тури билан оғриган 32 нафар болалар - 18та (56,2%) ўғил болалар, 14та (43,7%) қиз болалар олинган. Беморлар ўртача ёши $10,2 \pm 3,7$ ёш. Қалқонсимон безнинг ультратовуш текшируви, гипофиз гормони (ТТГ), қалқонсимон без гормонлари: эркин трийодотиронин (Т3) ва тироксин (Т4), тўқима пероксидазасига антитаналарни аниқлаш ўтказилди. 2001 йилги стандартлар қалқонсимон без ҳажмини баҳолаш учун ишлатилди. ТТГ учун 4 мМЕ/мл гача бўлган қийматлари меъёр деб қабул қилинди.

Тадқиқот натижалари. Қалқонсимон безнинг функционал ҳолатини баҳолашда 19та (59,3%) беморда ТТГ, эркин Т3 ва эркин Т4 даражалари меъёрий чегараларда эканлиги қайд этилди. 13 (40,6%) болаларда субклиник гипотиреозга хос ТТГ ортиши кузатилди, Субклиник гипотиреоз кузатилган кичик гуруҳда ўртача ТТГ даражаси $5,14 \pm 1,20$ мМЕ/л ни ташкил этди, бу эса без функцияси бузилмаган кичик гуруҳга қараганда анча юқори эди - $2,76 \pm 0,73$ мМЕ/л ($p=0,000$). Субклиник гипотиреозли кичик гуруҳда эркин Т3 нинг ўртача даражаси $4,41 \pm 0,81$ ни ташкил этди. ТТГ даражаси нормал бўлган гуруҳда эса $4,56 \pm 0,67$ пмоль/л ($p=0,409$) қайд этилди. Эркин Т4 нинг ўртача даражаси ушбу кичик гуруҳларда фарқ қилмади ва мос равишда $15,16 \pm 3,26$ ва $16,12 \pm 2,56$ пмоль/л ни ташкил этди. ($p=0,423$). Беморнинг ёши, жинси ва қандли диабетнинг давомийлиги, қалқонсимон без дисфункциясининг шаклланишига таъсир қилувчи омиллар сифатида қаралди. Субклиник гипотиреозли кичик гуруҳда ўртача ёш $12,1 \pm 1,05$; иккинчи кичик гуруҳда - $10,0 \pm 3,02$ ($p=0,407$) эканлиги аниқланди. Ушбу кичик гуруҳларда касалликнинг кечиш давомийлигида фарқлар кузатилмади, биринчи кичик гуруҳдаги диабет давомийлиги $2,56 \pm 2,17$ йил, иккинчисида $2,41 \pm 1,76$ йил ($p=1,00$) қайд этилди. Ультратовуш текширувига кўра, 21 (65,6%) болаларда диффуз букоқ ташхиси қўйилган. 8та болада ТПО



га антитаналар даражасининг ошиши аниқланди, бу текширилган болалар сонининг 25 фоизини ташкил этди. Шу билан бирга, бирон бир беморда ТПО га антитаналар даражасининг изолирланган ўсиши кузатилмади ва барча ҳолатларда у аутоиммун тиреоидитга хос бўлган ультратовуш ўзгаришлари билан бирга келди.

Хулоса. 1. қандли диабет 1-тури билан оғриган беморларда қалқонсимон безнинг характерли дисфункцияси субклиник гипотиреоз бўлиб, беморларнинг 40,6% да аниқланди.

2. Қалқонсимон без ҳажмининг ошиши қандли диабет билан оғриган болаларнинг 65,6% да қайд этилди, бу қалқонсимон безнинг нормал функцияси бўлган беморлар гуруҳига нисбатан субклиник гипотиреозли болаларда 2 баравар кўп учрашини кўрсатди.

3. Аутоиммун тиреоидит қандли диабет билан оғриган болаларнинг 25%да аниқланди.

Адабиётлар.

1. Davidson A, Diamond B. Autoimmune diseases. N Engl J Med. 2001; 345(5):340– 50
2. Dretzke J, Cummins C, Sandercock J, et al. Autoantibody testing in children with newly diagnosed type 1 diabetes mellitus. Health Technol Assess. 2004;8(22):1–183
3. Severinski S, Banac S, Severinski NS, et al. Epidemiology and clinical characteristics of thyroid dysfunction in children and adolescents with type 1 diabetes. Coll Antropol. 2009;33(1):273–9
4. Hadaegh F, Tohidi M, Harati H, et al. Autoimmune thyroid disease in type 1 diabetes patients in the south of Iran, Bandar Abbas. Iranian Journal of Diabetes And Lipid Disorders. 2004;4(1):72–65
5. Gómez JM, Maravall FJ, Guàrdia A, et al. Thyroid volume as measured by ultrasonography in patients with type 1 diabetes mellitus without thyroid dysfunction. Horm Metab Res. 2003;35(8):486–91.



УДК: 618.3-008.6-056-07-091: 616.45-091.8-053.1-02

**ПРЕЭКЛАМПСИЯ ФОНИДА ТУҒИЛГАН КЕЧКИ НЕОНАТАЛ ДАВРИДА
НОБУД БЎЛГАН ЧАҚАЛОҚЛАР БУЙРАК УСТИ БЕЗИНИНГ МОРФОЛОГИК
ЎЗГАРИШЛАРИ**

Иминов Авазбек Ойбекович

Email: iminovavazbek269@gmail.com

Мамажонов Бохадир Солижанович

т.ф.д. профессор Email: mamajonovb1972@mail.ru

Андижон давлат тиббиёт институти

Аннотация. Преэклампсия фонида туғилган кечки неонатал даврда нобуд бўлган чақалоқлар буйрак усти безининг морфологик жихатлари асосан, гестацион ёшига нисбатан орқада қолганлиги аниқланди, жумладан пўстлоқ қавати коптокча соҳасидаги гломеруляр таначаларнинг хали такомил топмаганлиги, хужайралари майда гипецееллюляр кўринишда бўлиб, эмбрионал даврдаги хужайраларни эслатади. Бу эса, преэклампсияда буйрак усти бези пўстлоқ қавати тутамли соҳаси етишмовчилигини англатади. Натижада, барча аъзоларда интерстициал суюқликни тез йўқотилишига олиб келиши сабабли чақалоқлар илк туғруқ пайтларида сепсис, септицемия ва бошқа инфекцион омиллар таъсирида нобуд бўлишига олиб келганлиги аниқланди.

Калит сўзлар: кечки неонатал давр, буйрак усти бези, тимус, ҳомиладорлик, преэклампсия, морфология.

Муаммонинг долзарблиги: Дунёда ҳомиладорлик даврида ривожланган преэклампсия ва эклампсияларнинг умумий кўрсаткичи 3,96-461% ни ташкил этиб, шулардан 41% да оғир преэклампсия ривожланади. Бу эса, ўртача дунё бўйича 180 млн ҳомиладор аёлларда патологиялар бораётганлигини кўрсатади. Преэклампсия фонида туғилган чақалоқларнинг 28-31% да барча эндокрин аъзоларининг морфологик ривожланишдан орқада қолганлиги аниқланиб, жумладан буйрак усти безининг морфологик чалалиги сабабли, туғма ва орттирилган иммунодефицитни ривожланиши ва чақалоқлар ўлими кўрсаткичи бўйича 1000 та туғруққа ўртача 13-17 тани ташкил этади.

АҚШ ва Европа давлатларида репродуктив ёшдаги аёлларни ҳомиладорликка тайёрланиши ва назорат остида бўлиши, 1000 та ҳомиладорликдан 3-4 ҳолатда преэклампсия аниқланиб, ўлим кўрстаичи бўйича 1000 та туғруқдан 1-3 ҳолатда летал кўрстаиқ билан тугалланади.

Дунёдаги жами ҳомиладорликни 4,6% да преэклампсия аниқланиб, энг кўп контингент Россия федерацияси, МДХ давлатлари аҳолиси орасида, преэклампсия фонида туғилган чақалоқлар орасида ўлим кўрсаткичи 1000 та туғруққа 25-31 тани ташкил этиб, энг юқори кўрсаткич Туркменистон, Арманистон, Ўзбекистон аҳолиси орасида аниқланган.

Дунёда энг кам кўрсаткич Япония ва Жанубий Корея давлатларида аниқланган. МДХ давлатларида ушбу кўрсаткич 10,57-18,2% ни ташкил этади. Ўзбекистон Республикасида 2022-йилда преэклампсия ва эклампсиядан нобуд бўлганлар сони жами ҳомиладорларнинг қарийб 8,96-12,7% ни ташкил этиб, чақалоқларни буйрак усти бези тўқимасидаги морфологик ўзгаришлар сабабли юзага келадиган иккиламчи асоратларни летал кўрсаткичлари ҳам тўлиқ ўрганилмаган бўлиб, хомила буйрак усти безининг ривожланмаслиги оқибатида, тимуснинг хаддан зиёд катталашиши, иммун аъзоларнинг интеграл боғлиқлигини издан чиқариши оқибатида, 1000 та туғруқдан ўртача 28-34та ҳолатда ўлим кўрсаткичи ривожланса, мамлакатимизда ушбу кўрсаткич 1000 тага ўртача 34-51 тага етиши ўрганилган. Бу эса, муаммони долзарблиги ва она бола муҳофазасида чақалоқлар ўлими кўрсаткичини юқорилиги билан характерланади.

Айнан ҳомиладорликнинг илк уч ойлигидаги ушбу ҳолатларда хомила ривожланишида кескин ўзгаришларнинг юзага келиши, хомила буйрак усти безига стрессловчи таъсир қилиши оқибатида, сепсис, септицемия ривожланишига олиб келади. Преэклампсия фонида ҳомилани бир вақтда барча паренхиматоз аъзоларининг зарарланиши оқибатида ҳомилани перинатал патологиялари полиорган етишмовчилиги кўринишида юзага келиши юқори ўлим кўрсаткичига олиб келади.

Юқоридаги эпидемиологик маълумотлар айнаи тадқиқот ишимиз долзарблиги ва ўз вақтида



танланганлигини кўрсатади. Бу эса, илмий тадқиқот ишимизни давлат миқёсида ўта долзарб ва муҳимлигини, она бола муҳофазасини химоя қилишда энг зарурий чора тадбирларни ишлаб чиқишни тақозо этиб, аини пайтда тадқиқот ишини заруратини англатади.

Тадқиқот мақсади: Онасида преэклампсия бўлган чакалоқлар буйрак усти безининг морфологик хос ўзгаришларини ўрганишдан иборатдир.

